

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.F.Gaybullayeva**

No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar ..... 835

**Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova**

Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi ..... 838

**M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova**

Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari ..... 841

**S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov**

Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition ..... 847

**M.T.Abdullayeva, M.Nazarov**

Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati ..... 850

**M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova**

Soil pollution by waste and measures to it prevent ..... 854

**D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova**

Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari ..... 857

**D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova**

Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi ..... 862

**Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova**

O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ..... 868

---

**ILMIY AXBOROT****Z.V.Alimova, M.A.Usmanova**

Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar  
va forsiy izofa haqida ..... 871

**X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova**

Isajon Sultoning "Ozod" romanida intertekstuallik ..... 876

**M.A.Jo'rayeva**

Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni ..... 880

**A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova**

Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi ..... 884

**I.I.Rustamova, D.A.Abduvahobova**

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari ..... 887

**A.G.Sabirdinov**

Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida ..... 890

**A.A.Qayumov**

Hastalangan ruhiyat tasviri ..... 894

**R.M.Umurzakov**

Avtobiografik qissalarda bola obrazi ..... 899

**Q.V.Yo'lichev, A.Charos**

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida  
ironiyaning o'rni ..... 903

**Z.V.Alimova**

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq  
leksemalar xususida ..... 907

**G.A.Ikromova**

Dramalar tilida antroponomislarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida) ..... 913

**I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva**

Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar ..... 918

**N.A.Abduvaliyeva**

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi ..... 922

**A.R.Dadajonov**

Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi ..... 927

**D.R.Teshaboyev**

Havola bo'laklı ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishiqlik ..... 930

**I.T.Axmадjonov, A.R.Dadajonov**

Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari ..... 936



УО'К: 82-992:82-94

**ABDULLA AVLONIY IJODIDA SAFARNOMANING O'RNI****МЕСТО ПУТЕШЕСТВИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ****PLACE OF TRAVEL IN THE WORKS OF ABDULLAH AVLONI****Jo'rayeva Manzura Ahronqulovna** 

Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasи mudiri, dotsent

**Annotatsiya**

Maqolada o'zbek adabiyoti vakili, jadid namoyondasi Abdulla Avloniyning "Afg'on sayyohati" asarining janr xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Asarning janriy xususiyatlari tahlilga tortiladi.

**Аннотация**

В статье размышляется о жанровой характеристике произведения «Путешествие по Афганистану» представителя узбекской литературы Абдуллы Авлони. Анализируются жанровые особенности произведения.

**Abstract**

The article reflects on the genre characteristics of the work "Afghan Travel" by Abdulla Avloni, a representative of Uzbek literature and a modern representative. Genre features of the work are analyzed.

**Kalit so'zlar:** janr, kundalik, esdalik, xotira, safar, sayyo, janr xususiyati, badiiylik.

**Ключевые слова:** жанр, дневник, мемуары, воспоминания, путешествие, турист, жанровая особенность, художественность.

**Key words:** genre, diary, memoirs, recollections, travel, tourist, genre feature, artistry.**KIRISH**

Abdulla Avloniy o'zbek xalqining atoqli shoiri, muallimi va mutafakkiri, jadidchilarning yetuk vakillaridan birdir. U o'z tarjimaiy holida: "Turli gazeta va jumallar o'qishga tutindim. 1904-yilda jadidlar to'dasiga kirdim. Mirobodda "usuli jadid" maktabi ochib o'qituvchilik qila boshladim", deydi. Abdulla Avloniy o'zi ochgan maktab uchun to'rt qismidan iborat "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni", "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darsliklar va o'qish kitobini yaratdi. Maktab-maorif ishlariga ko'mak ko'rsatuvchi "Jamiyat xayriya" tashkil etdi. "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada "Maktab kutubxonasi" kitob do'konini ochadi. U 1913-yilda tashkil etilgan professional "Turon" nomli teatri to'garagining tashkilotchilaridan. Bu to'garak keyinchalik Hamza tomonidan tashkil etilgan truppa bilan qo'shilib hozirgi bosh drama teatri - Hamza nomidagi hozirgi Milliy davlat akademik teatriga asos bo'ldi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan Abdulla Avloniy, Furqat, Zavqiy singari qalam sohibalari o'zlarining ko'ngil kechinmalari, rangin tuyg'ulari hamda ijtimoiy hayotga munosabatlarini badiiy ifodalashda o'ziga xos mahorat maktabi yaratganlar. Shuning uchun ham madaniy merosimizni, uning ulug' siymolarining hayot va ijod yo'llarini ham ilmiy ham badiiy talqin etish bugungi kunimizning muhim vazifalaridan birdir.<sup>10</sup>

Avloniy to'garagidan keyinchalik mashhur inqilobchi va madaniyat arboblari bo'lib tanilgan Nizomiddin Xo'jayev, G'ulom Zafariy, Shokijon Rahimiy, Shamsiddin Sharofiddinov (Xurshid), Mannon Uyg'ur singari ulug' shaxslar yetishib chiqdilar. Ular jadid yozuvchilar: Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza, Abdulla Qodiriy asarlarini sahnalashtirar va asosiy rollami o'zları o'ynar edilar. 1916-yilda ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib "Turon" gruppasi bilan

<sup>10</sup> Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: "O'zbekiston. 1993.

## ILMIY AXBOROT

birga "Layli va Majnunw spektaklini sahnalashtiradi. Abdulla Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi. Ayni chog'da Avloniy o'z teatri uchun "Pinak" (1915), "Advokatlik osonmi?" (1916) kabi sahna asarlari yozib beradi va ulami sahnalashtiradi. Bundan tashqari u tatar va ozarbayjon jadid yozuvchilarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima ham qilgan.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Abdulla Avloniy millat va yurt qayg'usi bilan, mamlakat istiqboli va ravnaqi ezgu niyati bilan yashadi va u bilan nafas oldi, o'z asarlarida uni kuylab tarannum etdi. Bu borada Avloniying quyidagi so'zlari g'oyatda ibratlidur va xuddi bugungi kunda bizni o'ylab aytigan so'zlarga o'xshaydi: "Har bir millatning dunyoda borligin ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur... Yohu bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqib ketduk! Yaxshi qo'shningdan olguncha yomon uyingni qidir, demishlar. Bobolarimizga yetishg'on va yaratgan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak yo'qotganlami ham topamiz. Yo'qolsa yo'qolsun, o'zi boshimga tor edi, deb Yevropa qalpog'ini kiyub, kulgu bo'lma zo'r ayb va uyotduru"<sup>11</sup>.

Ko'rinaridiki, adib xalqning ma'rifatli, ilmli qilish, o'zbek xalqiga xos bo'lgan urf-odat, an'analarni saqlab qolish, ayniqsa, o'zbek tilining ravnaqi uchun tinimsiz kurashgan va o'nlab maqolalar e'lon qilgan. Abdulla Avloniying bunday say-harakatlari "Afg'on sayyohati" asarida ham aniq namoyon bo'ladi.

Abdulla Avloniy yashab ijod etgan davr adabiy hayoti murakkab edi. Bunday muhit Abdulla Avloniy ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. "Afg'on sayyohati" asarida o'z ko'zi bilan ko'rgan, o'zi guvog'hi bo'lgan har bir voqeani nazaridan qochirmay bayon etadi. Inson kechinmalari, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari tashkil etgan. Ularda do'stlik, sadoqat, samimiyat, vafodorlik, sabot va matonat kabi tuyg'ularni yoritish bilan birga asosiy e'tiborini muqaddas vatan, xalq ozodligi, erkindligiga qaratgan.

Shu o'rinda sayyohatnoma janri haqida adabiyotshunoslik lug'atida berilgan fikrga to'xtalamiz. O'zbek adabiyotida safarnoma va sayyohatnoma janrlari sinonim sifatida qo'llanganligini ham inobatga olish zarur.

Sayyohatnoma - adabiy janr, yo'lching safar davomida ko'rgan-kechirganlari, o'zga yurtlarning tabiatni, ijtimoiy-maishiy turmushi, xalki, urf-odatlari va boshka sh.k. muallif mansub millat o'quvchilari uchun qiziqarli va foydali bo'lishi mumkin ma'lumotlar beruvchi asar. Aksar hollarda sayyohatnomalar o'z oldiga o'zga yurtlar hakida ma'lumot berish, ya'ni ma'rifiy maqsad bilan bir qatorda, publisistik, badiiy-estetik, falsafiy, siyosiy maqsadlarni ham qo'yadi. Janrning genezisi folklor va yozma adabiyot an'analarining sintezlashuvi natijasi bo'lib, markazida sayyoh-hikoyachi turgan asarlar folklor (mas., ertaklar) va yozma adabiyotda (mas., antik sayoxatnomalar) juda qadimdayoq yaratilgan. Sayyohatnomalarning janr-kompozitsion xususiyatlari sifatida markazida sayyoh-hikoyachi obrazining turishi va safar (muayyan yo'nalishdagi makon va zamonda o'zgaruvchi harakat) faktining mavjudligi, sayyoh-hikoyachining kuzatuvchi maqomida turishi va o'zga yurtda ko'rganlarini o'z yurtidagi xolat bilan qiyoslab borishi kabilarni ko'rsatish mumkin. Janrning ushbu asosiy xususiyatlari saklab qolningani xolda, adabiyot rivoji davomida sayyohatnomalarning bir qator boshqa ko'rinishlari ham paydo bo'ldi. Jumladan, ko'prok publisistik xarakterdagi va ijtimoiy-ma'rifiy maqsadlarni ko'zlovchi "o'z yurti bo'ylab safar"lar; o'z yurtidagi holatni shartli ravishda tahlil qilish, muayyan ijtimoiy-siyosiy qarashlarni ifodalash maksadlariga qaratilgan va ko'prok satirk xarakterdagi asli mavjud bo'lmagan "fantastik yurtlar"ga sayyohatlar; xorijiliklarning muallif yurtidagi sayohati va b. Shuningdek, adabiyot tarixida janrga xos shakliy xususiyatlari (sayyoh, safar fakti) olingani holda, sayyohatnomalarlardan o'zgacha maqsadlarni ko'zlovchi asarlar xam ko'plab uchraydi. Mas., Cho'ponning "Yo'l esdaligi"da sayyohatnomalarga xos shakl asosida sayyoh-muallif ruhiyati, dunyoqarashidagi o'zgarish jarayonlari ifodalanganki, uni ramziy lirik-publisistik asar deyish mumkin<sup>12</sup>. (265-bet)

Abdulla Avloniy "Afg'on sayyohati" deb nomlagan asari janr nuqtai nazaridan safarnoma janriga misol bo'ladi. Safarnoma janrining kundalik tarzida yozilgan turidir. Adib Afg'onistonda ko'rgan, o'zi guvohi bo'lgan voqe-xodisalarni yozib borgan. Kunma kun voqealar yozib borilgan,

<sup>11</sup> Abdulla Avloniy. "She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma". Toshkent. "Zabarjad Media", 2022-yil, 16-bet.

<sup>12</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Т.Академнашр. 2010 йил. 265-бет.

biroq o'sha davrda bu hech qaysi matbuotda yoritilmagan. Asar yozilishi jihatidan kundalik tarzda bayon etilsa-da, biroq uni o'quvchi badiiy asar o'qigandek oson o'qiydi. Birinchidan bu yozuvchi mahoratini belgilasa, ikkinchidan uslubning o'ziga xosligini namoyon etadi.

Kundaliklar - ko'rgan-kechirganlarni kunma-kun, odatda, sanasini qayd etgan holda yozib borish; adabiyotdagи shu tarzda amalga oshirilgan rivoya shakli. Maishiy-shaxsiy janr sifatida kundaliklar ancha keng tarkalgan bulib, turli soha kishilari tomonidan yuritilgan kundaliklarni birlashtiruvchi kator umumiy xususiyatlар mavjud. Avvalo, kundaliklarda muallifning ko'rgan-kechirganlari, his qilganlari bilan ularning qayd etilishi orasida vaqt masofasi yo'q hisobida, ya'ni olingan taassurotlar sovumasidanoq qayd etiladiki, shu jihat bilan ular memuarlardan farqlanadi. Ikkinci muhim xususiyat shuki, kundaliklar birovlarning o'qishi uchun mo'ljallanmaydi, ular muallifning o'zi uchun yoziladi. Shu tufayli ham kundaliklardi muallif uy-fikrlari bayoni, izhorlarida samimiyat, munosabat va baxo ifodasida haqqoniylik (ya'ni muallifning uyidagini yashirmay-netmay, hech bir istiholasiz yozishi) kuzatiladi. Xuddi shu narsa ularga qariyb xujjalilik darajasida ishonarlilik baxsh etadi. Odatda, kundaliklarda ko'proq muallifning shaxsiy realligi, uning uzi bilan bevosita bog'liq voqealar aks etadi, birok shulardan kelib chiqqan holda, ularda olam va odam, hayotning mohiyati, biron bir konkret hayotiy masala yuzasidan umumiy tarzagi mushoxadalar ham ifoda etilaveradi. Mazkur xususiyatlari tufayli yozuvchi-shoirlar yuritgan kundaliklar adabiyotshunoslik uchun, ayniqsa, biografik yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun beqiyos manbaga aylanadi. Bundan tashkari, kundaliklarga xos xususiyatlар ayrim hollarda badiiy niyat ijrosi uchun juda qulay imkoniyatlар yaratadi. Shuning uchun adabiyotda kundaliklar shaklida ko'rigan asarlar ham, kundaliklar shakli muhim kompozitsion unsur sifatida istifoda etilgan asarlar ham ko'plab uchraydi<sup>13</sup>.

"Afg'on sayohati" asariga epigraf sifatida "1336-hijriy 16-ramazon 1919-milodiy 15 iyun" sanasi kiritilgan. Epigraf odatda asar g'oyasini ochishga xizmat qiladi. Biroq bu yerda g'oyadan ko'ra aniq faktga tayanish nazarda tutilgan.

"1919-milodiy 15-iyunda kech soat 6 da Toshkandan Afg'onistong'a qarab harakat qilduk. Bizim ila birga mashhur mustashriqlardan o'rtoq Brovin ham bor edi. O'rtoq Brovin bir necha Yovrupo tillarini bilmox ila barobar mukammal fors tilini ham bilurdi. Bizlar ila birga Turkiston Jumhuriyatining "voyenni atteshe" – harbiy qo'misari o'rtoq Ivano'f, savdo va tijorat sho'basi tarafindan o'rtoq Kuliko'f, siyosiy qo'misar o'rtoq Ziboro'flardan boshqa bir necha texniklar, havo tilgiromchilari, avtomobil ustolari, o'n bir nafar qizil askarlardan ham bo'lib, bularning 9 nafari musulmon edi. Bulardan boshqa Afg'onistondan, Turkistonga kelmish afg'on hay'ati vakolasindan Abdulrahimxon ila birga ellik afg'on askari va bir sartarosh ham bor edi"<sup>14</sup>.

Asarning boshlanishi kundalik tarzida boshlansa-da, biroq ekspozitsiya ko'rinishidagi tanishtiruv holatiga ko'zga tashlanadi. Adib qachon va qayerdan, kimlar bilan yo'lga tushayotganligini aniq bayon etadi. Birgalikda safarga chiqanlarni tanishtiradi. Safar davomida xarakterlarni namoyon qiluvchi holatlar tasviriga alohida to'xtaladi. Asar kompozitsion jihatdan badiiy asarga o'xshasa-da, biroq u kundalik asosiga qurilgan safarnomadir.

Ekspozitsiya (lot. expositio - bayon, tushuntirish) - syujet komponentu personajlarning bevosita tugun yuzaga kelishi vaqtida kechgan hayoti, asosiy konflikt yetilgan shart-sharoitlar tasviri. Ekspozitsiya o'quvchini asar voqealarini kechadigan joy, voqealari ishtirokchilari bo'lmish personajlar, konfliktni yuzaga keltirgan shart-sharoitlar bilan tanishtiradi, uni syujet voqealarini idrok qilishga tayyorlaydi<sup>15</sup>.

Avloniy va uning hamroxlari Toshkentdan Kobulga 68 kun deganda yetib borganliklari, yo'lga juda qattiq qiyinchiliklarga duch kelganliklari haqida batafsil yozadi. Xalqimiz, mamlakatimiz tarixida g'oyat og'ir bo'lgan 1919 yil voqealarini, ochlik, vayronagarchilikni samimiy ro'yi rost yozishi bilan bu safarnoma muhim ahamiyatga egadir.

### XULOSA

"Afg'on sayohati"da muallif milliy munosabatlarda o'sha paytlari ko'zga tez-tez tashlanib qoladigan shovinism xususida fikr yuritgan edi. Eng muhimi, ozodlik va tenglik va'da qilgan rus

<sup>13</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Т.Академнашр. 2010 йил. 147-бет

<sup>14</sup> Abdulla Avloniy. "She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma". Toshkent. "Zabarjad Media", 2022-yil, 16-bet.

<sup>15</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Т.Академнашр. 2010 йил. 356-бет

**ILMIY AXBOROT**

inqilobining riyokorligini, sho'ro hukumatining xiyonatini fosh etgan. Asar kundalik tarzidagi safarnoma ekanligini yilma-yil, kunma kun bayoni, undagi voqealarni to'g'ri yoritilganligi, aniq fakt asosida tahlil etilgani jihatidan boshqa safrnomalardan farq qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: "O'zbekiston. 1993.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Т.Академнашр. 2010 йил. 147-бет
3. Abdulla Avloniy. "She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma". Toshkent. "Zabarjad Media", 2022-yil, 16-bet.